XALQ DEPUTATLAR JIZZAX VILOYATI KENGASHINING QARORI

2024 - yil 15 - fevral VI-51-37-3-0-K/24 Jizzax viloyati hokimligi

Viloyatda qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun yangi ta’riflarni hamda Jizzax shahri va tumanlarda faoliyat yuritayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar bo‘yicha zararsiz chiqindilarni chiqarish yuzasidan vaqtinchalik me’yorlarni belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Chiqindilar to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi 2002-y. 4-, 5- son, 72-modda), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-sentabrdagi PQ-4845-sonli va 2022-yil 11-avgustdagi ПА-349-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevraldagi 95-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash hamda Jizzax viloyati Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasining 2023-yil 7-dekabrdagi 03/4-6813-sonli xatini inobatga olib, viloyat hududida qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash hamda olib chiqib ketish xizmatlarini samarali tashkil qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5-, 6- va 25-moddalariga asosan xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashi

QAROR QILADI:

1. Jizzax viloyati Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasining 2023-yil 7-dekabrdagi 03/4-6813-sonli xati hamda viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 1-dekabrdagi 01-20-08-05-38/271-sonli xati bilan tasdiqlangan hisob-kitoblar ijro uchun qabul qilinsin.

2. Jizzax viloyatining barcha shahar va tumanlari hududlarida qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish, joylashtirish xizmatlari bo‘yicha yangi tariflar 1-ilovaga;

3. Jizzax viloyatining barcha shahar va tumanlarida faoliyat yuritayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar bo‘yicha zararsiz chiqindilarni chiqarish yuzasidan vaqtinchalik me’yorlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi (E.Xolmatov) va O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Jizzax viloyat boshqarmasi (B.Soatov) hamda viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish boshqarmasi (S.Mirzaqobilov)ga qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash hamda olib chiqib ketish xizmatlari uchun yangi tariflar belgilanganligini aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlar e’tiboriga yetkazish vazifasi topshirilsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevraldagi 95-sonli qarori bilan tasdiqlangan 1-ilovaning 8-bandiga asosan yirik gabaritli maishiy chiqindilar, chorvachilik chiqindilari, qurilish chiqindilari va tuproq, daraxt va butalarni kesish hamda agrotexnik ishlov berishdan hosil bo‘ladigan chiqindilar (daraxt va buta shox-shabbalari, kesish ishlari qoldiqlari, barglar va boshqalar)ni olib chiqib ketish uchun xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar tomonidan kelishilgan narxlarda alohida to‘lovlar evaziga amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan viloyat hokimining 2022-yil 17-noyabrdagi 593-3-0-Q/22-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Qaror matni “Jizzax haqiqati” va “Djizakskaya pravda” gazetalarida rasman e’lon qilinsin hamda viloyat hokimligining jizzax.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

9. Ushbu qarorning ijrosini ta’minlash xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiyasi va nazorat qilish Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda viloyat hokimining o‘rinbosari H.Hasanov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **E.Saliyev**

Xalq deputatlari Jizzax viloyat
Kengashining
2024-yil 15-fevraldagi
VI-51-37-3-0-K/24-son qaroriga
1-ilova

Qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to‘plash hamda olib chiqib ketish, chiqindi poligonlariga joylashtirish xizmatlari bo‘yicha yangi TARIFLAR

T/r	Hududlar nomi	Yangi tarif darajalari				
		Aholiga bir oy uchun bir odam boshiga	Xo‘jalik subyektlariga (QQS siz)			Chiqindi poligoniga chiqindi joylashtirish uchun (QQS siz)
			1 m3 uchun	1 m3/0.443 kg 2.257 koeffitsiyent	1 tn. uchun	1 tn. uchun
1	Arnasoy	6000	60000	2,257	135 420	11 865
2	Baxmal	6000	60000	2,257	135 420	11 865
3	G‘allaorol	6000	60000	2,257	135 420	11 865
4	Sharof Rashidov	6000	60000	2,257	135 420	11 865
5	Do‘stlik	6000	60000	2,257	135 420	11 865
b	Zomin	6000	60000	2,257	135 420	11 865
7	Zarbdor	6000	60000	2,257	135 420	11 865
8	Zafarobod	6000	60000	2,257	135 420	11 865
9	Mirzacho‘l	6000	60000	2,257	135 420	11 865
10	Paxtakor	6000	60000	2,257	135 420	11 865
11	Forish	6000	60000	2,257	135 420	11 865
12	Yangiobod	6000	60000	2,257	135 420	11 865
13	Jizzax shahri	6000	60000	2,257	135 420	11 865

Xalq deputatlari Jizzax viloyat
Kengashining
2024-yil 15-fevraldagi
VI-51-37-3-0-K/24-son qaroriga
2-ilova

Jizzax shahar va tumanlarda faoliyat yuritayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar bo‘yicha zararsiz chiqindilarni chiqarish yuzasidan vaqtinchalik
ME’YORLAR

№	Manbalar nomi	O‘lchov birligi	O‘rtacha yillik jamlanish me’yori (m3)
1	Tashkilotlar, korxona va muassasalar (mulkchilik shaklidan qat’i nazar)	1 xodim	0.25
2	Kasalxona va sanatoriyalar	1 yotoq	0.7
3	Poliklinika, stomatologiya, meditsina markazlari, shu jumladan, xususiy klinika va meditsina markazlari	1 mijoz	0.02
4	Mehmonxonalar	1 urin	0.7
5	Yotoqxonalar	1 urin	1.0
6	O‘quv muassasalari (maktab, institut, kollej)	1 o‘quvchi, talaba	0.12
7	Teatr, kinoteatrlar	1 o‘rindiq	0.2
8	Restoranlar, choyxonalar, oshxonalar a) maydoni b) oshxona	1 mijoz 1 metr kv. 1 metr kv.	0.21 0.2 0.46
9	Omborxona, ishlab chiqarish korxonalari binolari	1 metr kv.	0.23
10	Oziq-ovqat do‘konlari	1 metr kv.	0.46
11	Kiyim-kechak do‘konlari	1 metr kv.	0.22
12	Aralash mollar do‘konlari	1 metr kv.	0.32
13	Atelye, sartaroshxonalar, kosmetika salonlari va boshqa maishiy xizmat korxonalari	1 mijoz	0.05
14	Bozorlar, savda majmualari, savdo maydonlari	1 metr kv.	0.036
15	Ferma va boshqa chorva mollari uchun • Sigirlar • Otlar • Cho‘chqalar • Echki va qo‘ylar • Qushlar	1 boshga	13 11.5 6.0 3.3 0.015
16	OFIS	1 metr kv.	0.19
17	Dorixonalar	1 metr kv.	0.15
18	Bolalar bog‘chasi, MTMlar	1 qatnovchi	0.24
19	Yuvish shoxobchalari	1 metr kv.	0.15
20	Yoqilg‘i quyish shoxobchalari	1 metr kv.	0.12
21	Kompyuter xonalar	1 metr kv.	0.21

22	Texnik xizmat kursatish shoxobchalari	1 metr kv.	0.25
23	Barcha korxona va tashkilot, muassasalar hududlarini supurib tozalash • shag‘al qoplamali joyni • asfalt qoplamapi joyni • bruschatkali joyni	1 metr kv.	0.015 0.007 0.01